
РИШТОНДАГИ ЯПОН МАКТАБИНИНГ ШУҲРАТИ

Rishtonda “Rishton-Yaponiya” madaniy iqtisodiy aloqalar markazi qoshida tashkil etilgan yapon tilini o’qitish maktabi 19 yildan buyon faoliyat yuritib kelmoqda. Maktabda viloyatimizning Rishton, Oltiariq, Bag’dod tumanlari, shuningdek Andijon, Namangan va Qashqadaryo viloyatlaridan kelib o’qigan 160 nafardan ziyod yigit-qizlar Yaponiyaning ko’plab oliy o’quv yurtlarida ta’lim olib, ayni kunlarda mutaxassis sifatida o’sha yerdagi yirik firma va kompaniyalarda ishlayotgan bo’lishsa, ko’pchiligi bilim va malakalarini oshirmoqda. Quvonarlisi, taqdir taqozosi bilan maktabning 2 nafar sobiq o’quvchisi yapon yigitiga turmushga chiqqan bo’lsa, 2 nafar yigit yapon qiziga uylanib, oila qurishgan va ayni paytda ularning shirindan-shakar farzandlari bor. Bugungi kunda maktabda 6 ta guruhda 50 nafardan ziyod yigit-qizlar yapon tilini o’rganishyapti. Maktabning yana bir e’tiborli tomoni shundaki, bu yerda yoshlarga nafaqat yapon tili, madaniyati, balki tarixi ham o’rgatiladi. Yaponlar qaysidir ma’noda bizning xalqimizga o’xshab ketadi. Ularning turmushi, tutumlari, oiladagi saranjom-sarishtalik, ota-onani hurmat qilish, o’zaro muomala madaniyati - hammasi o’xshash. Maktabda qat’iy o’qitish rejasi yo’q. Lekin yapon tilini o’rganishga qiziquvchi yoshlar kelib, ko’proq o’zaro va yoki o’qituvchi bilan erkin muloqotda bo’lishadi. Markaz tashkil topganidan buyon o’tgan vaqt ichida ikki davlat o’rtasidagi do’stlik va madaniy aloqalar rivojlantirib borilyapti. Natijada keyingi yillarda mingdan ortiq kunchiqar mamlakat fuqarolari ushbu markaz hamda yapon tilini o’qitish maktabi bilan tanishish maqsadida tashrif buyurishdi. Shu bilan birga sayyohlar tumanda ijob qilyotgan usta kulollar tomonidan ishlab chiqarilayotgan, san’at darajasidagi mahsulotlar va yaratilish jarayonlarini bevosita kuzatish imkoniyatiga ham ega bo’ldilar. E’tiborlisi, sayyohlarning kulolchilik mahsulotlarini xarid qilishlari barobarida bunday holatlarni mamlakatimizda turizmni rivojlantirish sari qilinayotgan sa’yi harakatlarning natijasi, deyish mumkin. Maktabda yaponiyalik o’qituvchilar yoshlarga yapon tilini beg’araz o’rgatishadi. Iqtidorli va bilimli yoshlar bu imkoniyatlardan unumli foydalanib, qator yutuqlarni qo’lga kiritib, Respublikamiz dovru’g’ini dunyoga yoymoqdalar. Ana shunday fidoyiliklarning boshida turgan markaz rahbari G’anisher Nazirovning mehnati yuksak qadrlanib, davlatimiz tomonidan e’tirof etilib, “Do’stlik” ordeni bilan taqdirlangan. Shu yilning iyun oyida G’anisher Nazirov Yaponiyada o’tkazilgan ikki mamlakat o’rtasida do’stlik va madaniy-ma’rifiy aloqalarni rivojlantirishga bag’ishlangan Xalqaro forumda qatnashdi. E’tiborlisi, o’sha yerda davlat rasmiylari bilan qilingan muloqotlar davomida Yaponiyadagi tinchlik va sog’liqni targ’ib qiluvchi PHD Xalqaro tashkilot rahbarlari bilan ham tanishib, muloqot olib bordi. Ushbu muloqotlar jarayonida mezbonlar Rishtondagi “Rishton-Yaponiya” madaniy iqtisodiy aloqalar markazi hamda uning qoshida faoliyat yuritib kelayotgan yapon tilini o’qitish maktabiga qiziqish bildirdilar va batafsil ma’lumotlarga ega bo’lishdi. Shundan so’ng ushbu Xalqaro tashkilot vakillari O’zbekistonga, aynan Rishtonga kelib markaz faoliyati bilan tanishish va maktab o’quvchilari, ularning ota-onalarini bepul tibbiy ko’rikdan o’tkazishni bildirishgan edi. Yaqinda ana shu ahdlashuvga ko’ra, tashkilotning umumiy kasalliklar bo’yicha tajribali shifokori Akio Kitano boshliq olti kishidan iborat bir guruh mutaxassislar Rishtonga kelishdi. Mazkur tashkilot dunyoda qiynalayotgan yoki endi tashkil etilgan davlatlarga beg’araz yordam beradi. Insonlarni tibbiy ko’rikdan o’tkazib, aniqlangan kasalliklar bo’yicha tekinga dori-darmonlar bilan ta’minlaydi. Yaponiyalik shifokorlar bir hafta davomida Rishtonda bo’lishib, o’quvchilar va ularning ota-onalarini tibbiyotning eng so’nggi apparaturalari yordamida bepul tibbiy ko’rikdan o’tkazib, kerakli muolajalarni amalga oshirishadi, dori-darmonlar bilan ta’minlaydi yoki muolajaga tavsiya beradilar. Ma’lumot o’rnida: Yaponiyalik tibbiyot mutaxassislarining yo’l xarajatlari, oziq-ovqat va boshqa masalalari, shuningdek, tarjimonlarga haq to’lash Yaponiya hukumati tomonidan amalga oshiriladi.

Zaylobiddin YIGITALIEV.

Suratda: yaponiyalik shifokor Akio Kitano fuqaroni tibbiy ko’rikdan o’tkazyapti.

Muallif olgan surat.

2022-08-18 06:21:00